

Халқ депутатлари Сурхондарё вилояти Узун тумани Кенгашининг қарори



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani, O'zbekistonko'chasi 7-uy, tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 30 - iyun

VI-43-85-8-118-K/22

Uzun tuman hokimligi

Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko'rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (T.Ataxanov) mazkur qarorni rasmiy e'lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e'lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Ismatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



B.B.Tursunov

Xalq deputatlari Uzun tuman
Kengashining
2022 yil 30 iyundagi
VI-43-85-8-118-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e‘tirof
etilyotgan ayrim qarorlari**

RO‘YXATI

1. Halq deputatlari Uzun tuman Kengashining 2016-yil 20-dekabrda 72/20-05-sonli Uzun tumani mahalliy budjetining 2017 yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Halq deputatlari Uzun tumagn Kengashining 2017-yil 31-dekabrda 113/31-05-sonli Uzun tuman mahallny budjetining 2018-yilgi parametrlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. Halq deputatlari Uzun tumagn Kengashining 2018-yil 27-dekabrda 157/44-05-sonli Uzun tumani maxyalliy budjetnimg 2019-yilgn parametrlarn to‘g‘risida”gi qarori.
4. Halq deputatlari Uzun tumagn Kengashining 2019-yil 19-dekabrda 213/57-05-sonli Uzun tumanining 2020-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.